



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

**SAID AHMAD ESSELARIDA IJODKORLAR MA'NAVIY-RUHIY
DUNYOSI TO'G'RISIDAGI MUSHOHADALARNING AKS ETISHI**

Lapasova Go'zal Unarboy qizi

Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti Pedagogika fakulteti boshlang'ich

ta'lim nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi

gozallapasova88gmail.com

+998933032896

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ustozlarining, xususan, Abdulla Qahhor ijodi va shaxsining Said Ahmad hayotida tutgan o'rni haqida to'xtalib o'tilgan. Bu insonlar Said Ahmadning qalb ko'zini ochgan, unga hayotning barcha voqea-hodisalarini teran o'ylashga, mushohada qilishga o'rgatgan murabbiylardir. Said Ahmad ustozlar xotirasini to'lib-toshib yozar ekan, kitobda u kechinmalarning badiiy ko'rinishini aks ettirgan. Adabiyotimizning buyuk namoyandalarining manguylikka bog'langan mo'tabar nomlarini Said Ahmad yod etib, ustozlari oldida, shu bilan birga butun o'zbek adabiyoti oldida o'zining burchini ado etgani atroflicha yoritib berilgan.

KALIT SO'ZLAR. "Sarob", "Tortiq", "Ufq", "Sinchalak"

Said Ahmad asarlari qatorida ustozlari, zamondoshlari—mashhur yozuvchi va shoirlar Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor, M.Shayxzoda, Mirtemir haqidagi ocherklarni o'qib o'zbek adabiyoti tarixining o'tgan asrdagi murakkab davri manzaralariga guvoh bo'lamiz, atoqli ijodkorlar shaxsi va hayotiga, mashhur asarlari yaratilishiga bevosita aloqador qimmatli ma'lumotlar, voqea-hodisalardan xabar topamiz. Eng muhimi, bu kabi xotiralar, adabiy o'ylar bayonida xalqimizning sevimli yozuvchisi Said Ahmadning salobatli siymosi, ulkan ijodkorlarga xos adabiy-estetik qarashlari, ijod bilan aloqador mazmunan teran fikr-o'ylari—badiiy olami o'zining ko'lamdorligi bilan to'la-to'kis namoyon bo'ladi

XX asr o'zbek adabiyoti tarixida Abdulla Qahhor va Said Ahmad o'chmas iz qoldirgan atoqli adiblardir. Abdulla Qahhor o'tgan asrning 30-yillarida mashhur hikoyalari, "Sarob" romani bilan katta shuhratga erishgan edi. Abdulla Qahhor



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

yangi milliy adabiyotimizning ikkinchi avlodi sanalmish Oybek, Gʻ.Gʻulom, H.Olimjon, Mirtemirlar safida turib ijod etdi. Safdoshlari kabi A. Qahhorning qizgʻin ijodiy faoliyati XX asrning eng fojiali paytida, mudhish 30-50-yillar sharoitida, mustabid yakka hokim mafkura, sovet adabiy siyosati taʼsiri va tazyiqi ostida kechdi. Bu hol yozuvchining ijodiy taqdirida talay noxush asoratlar qoldirdi. Ayni paytda Alloh bergan benazir isteʼdod, noyob shaxsiy fazilatlar, oʻziga xos oʻtkir nigoh, fuqarolik tuygʻusi, qatʼiyat, iroda-bardosh, haqgoʻylik, halollik va shijoat tufayli zamonasi talotumlaridan yuqori koʻtarila oldi. Adibning dilbar hikoyalari unga katta shuhrat keltirdi. “Sinchalak”, “Oʻtmishdan ertaklar” qissalari, “Sarob”, “Qoʻshchinor chiroqlari” romanlari, “Shohi soʻzana”, “Tobutdan tovush” komediyalari, oʻnlab oʻtkir publitsistik chiqishlari, adabiy-tanqidiy maqolalari, zargarona tarjimalari asr adabiyoti, maʼnaviy-madaniy hayoti tarixida yorqin va oʻchmas iz qoldirdi.

Said Ahmad oʻzining “Yoʻqotganlarim va topganlarim” nomli kitobidagi Abdulla Qahhorga bagʻishlangan xotiralarida oʻzining ilk mashqlari hamda ergashgan yozuvchisi haqida shunday yozadi: – “1936 yili qoʻlimga Abdulla Qahhorning hikoyalar kitobi tushib qoldi. Oʻqib koʻrdim... Yana oʻqidim... Oʻqiyverdim. Birdan yozuvchi boʻlish havasi dilimga tushdi. Yozib koʻrdim. Sira hikoyaga oʻxshata olmadim. E, bu ham boʻlmadi, deb qalamimni uloqtirdim. Ertasiga yana yozuvchi boʻlgim kelaverdi. Yana yozdim. Yana boʻlmadi, indiniga yana yozuvchi boʻlgim keldi. Bu galgi qarorim qatʼiyroqqa oʻxshadi. Kechasi ham, kunduzi ham yozaverdim. Besh, oʻn kun mashq qilganimdan keyin, endi yozuvchi boʻldim deb, “Ishqivoz” degan hikoyamni qoʻltiqlab “Mushtum” jurnali redaksiyasiga bordim”¹.

Bu hikoya jurnalda bosilib chiqqandan soʻng, buning quvonchidan ilhomlangan yosh yozuvchi toʻxtovsiz yoza boshlaydi. Yozganlari boshqa nashrlarda ham ketma-ket chiqib turadi. Nashriyotga topshirilgan ilk toʻplam uch oydayoq “Tortiq” degan nom bilan chop etiladi.

¹ Said Ahmad. Yoʻqotganlarim va topganlarim. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy oʻylar. – B. 93.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

Kutilmaganda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” jurnalida Abdulla Qahhorning bu to‘plam haqida keskin tanqidiy maqolasi chop etiladi. Ustoz adib yozadi: “Tortiq” to‘plamidagi ko‘p hikoyalar... hojati yo‘q “ilmiy” asarga o‘xshaydi. Olim qandoq bo‘lmasin bir ilmiy asar yaratishga uringanday, yozuvchi qandoq bo‘lmasin hikoya yozishga uringan. Olim qancha ovora bo‘lib, tajribadan o‘tkazganday, yozuvchi qancha o‘ylab, voqealar yaratadi. Sirtidan qaraganda, olimniki ilmiy, yozuvchiniki adabiy asarga o‘xshaydi, lekin kitobxonning “bundan maqsad nima?” – degan bir savoli bilan har ikkisinin ham chuvi chiqadi”.

Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, Abdulla Qahhor “qattiq” tanqidiy maqolani ko‘ngilga umid beradigan so‘zlar bilan yakunlagan: “Yosh yozuvchi Said Ahmad qo‘liga tanbur olibdi, qulog‘ini burashiga, parda bosishiga, chertishiga qaraganda, tuzuk bir mashq chala oladiganga o‘xshaydi, lekin hali mashq chala olgani yo‘q, “Tortiq”dagi hamma hikoyalar shuni ko‘rsatadi. Tanburni qo‘lga olib, sozlashdan muredd, mashq chalish ekanligini esdan chiqarmasa bo‘lgani”.

Maqola chiqqach, Said Ahmad ustoz adibdan qattiq ranjiydi. Hatto munosabati shu darajaga yetadiki, agar Abdulla Qahhor ko‘cha-ko‘yda duch kelib qoladigan bo‘lsa, chapanichasiga unga salom bermasdan o‘tadigan bo‘ldi, bo‘lib turadigan har xil tadbirlarda ustozning oldiga ataylab g‘ashiga tegish uchun ko‘k choy o‘rniga, qora choy damlangan choynakni olib borib qo‘yadi. Xullas, shunaqa yo‘l bilan undan o‘ch olmoqchi bo‘ladi. Yoshlarga xos bo‘lgan bunday jizzaki harakatlarni ulug‘ adib sezmasligi mumkin emasdi, albatta. Lekin ularni haqiqiy ustozlarga xos bo‘lgan bir bosiqlik bilan kechiradi. Shu boisdan ham u bir kuni Said Ahmadni chetga tortib, “Yozishga qo‘lingiz juda kelishadi. Tilni bilasiz. Ozroq rassom bo‘lganingiz ish beribdi. Personajlar suvratini aniq chizayapsiz. Tasviringiz rangli”, – degan dalda beruvchi gaplarni aytadi. Said Ahmad iste’dodiga xos bo‘lgan ilk qirralarni bu darajada sodda va aniq shaklda aytilishi keyinchalik uning ijodining yetakchi uslubiy xususiyatiga aylangan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Said Ahmad “Tortiq”dan so‘ng ham ko‘plab hikoyalar yozgan. Masalan, urush yillarida va undan keyingi davrda ham uning qator hikoya va qissalar e‘lon qilgani adabiyot muxlislariga yaxshi ma‘lum. Ularning orasida adabiy tanqidchilikda ijobiy baholanganlari ham bor. Masalan, “Mastonbibi” hikoyasini shunday asarlar qatoriga kiritish mumkin. Lekin u mana shu davrda adabiyotda hodisa bo‘ladigan



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

darajadagi asarlar yaratmadi. Buning ustiga, Said Ahmadning urushdan keyingi yillarda bir guruh o'zbek adiblari qatori qatag'on qilinishi uning yozuvchilik faoliyatiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Olti yillik qamoq hayoti yuragida o'chmas iz qoldiradi. 50-yillarning ikkinchi yarmidan e'tiboran undagi ijodiy kayfiyat sekin-asta yana izga tusha boshladi. Bu davrda u qator ocherklar, hikoyalar yaratadi. Ayniqsa, uning cho'lni o'zlashtirish mavzusidagi turkum hikoyalari yozuvchining ijodida alohida o'rin tutadi. Shu o'rinda bir fikrni ta'kidlash lozim: "Tortiq" to'plami haqidagi keskin chiqishidan so'ng Abdulla Qahhorning yigirma yildan oshiq vaqt davomida Said Ahmad ijodi haqida biron bir munosabat bildirgani kuzatilmaydi. Lekin ulug' ustoz shuncha muddat shogirdining ijodiga befarq qaragan deb bo'lmaydi. U Said Ahmad e'lon qilayotgan asarlarni zimdan kuzatib borgan. Uning ijodiy izlanishlaridan o'zicha qanoat hosil qilib, xulosalar chiqarib yurgan. Xo'sh, shunday qattiqqo'llikka, talabchanlikka asoslangan va ayni chog'da bor, mavjud iste'dod kurtagini ezg'ilab tashlamaydigan, sabr-bardosh bilan bir kun o'sib meva berishiga umid qilib erinmaydigan munosabatning natijalari qanday bo'ldi?

Bu orada Said Ahmad "Ufq" romanini yozib tugatadi. Abdulla Qahhor "Ufq" asari haqida yuksak fikrlar bildiradi va bu asar bundan chorak asr oldin qilgan orzularining mevasi ekanini alohida e'tirof etadi. Said Ahmad shu munosabat bilan ustoz haqida quyidagilarni yozgan edi: – "Abdulla Qahhorning ba'zi doiralarda "Said Ahmad yaxshi hikoyanavis bo'lib qoldi" degan gaplari qulog'imga chalinib qoldi. Ammo o'zimga bunaqa gaplarni aytgani yo'q. "Ufq" romanini yozganimdan keyingina u o'z fikrini ochiq-oshkor aytdi. Domla romanimga juda katta baho berdi. Quvonchini yaxshigina bir maqola bilan izhor qildi.

Men ham Abdulla Qahhordek buyuk ustozning maqtoviga sazovor bo'lganimdan behad shod edim. Uning bu iliq gapini o'ttiz yildan ortiq kutgandim... "Tortiq"dan "Ufq"qacha domlaning etagidan ushlab bordim. Bu olis, mashaqqatli yo'lda necha martalab qoqilib, necha martalab qaddimni rostladim. Maqtovlardan ko'ra ta'nalarni ko'proq eshitdim. Abdulla Qahhorning "Ufq"qa bergan bahosi men uchun katta adabiyot yo'liga bergan oq fotihasi edi. Ustoz Abdulla Qahhor nihoyat meni shogirdim deb atadi. Bu men uchun hech bir boylik bilan o'lchab



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

bo‘lmaydigan bebaho sharafdir!²” Abdulla Qahhor bilan Said Ahmad o‘rtasidagi yaqinlik, o‘zaro munosabatlar atoqli adib hayotining so‘nggi kunlariga qadar davom etdi. Ustoz shogirdi ijodini, garchi u taniqli yozuvchilar qatoridan allaqachon o‘rin olgan bo‘lsa-da, kuzatishda, munosabat bildirishda, maslahat berishda davom etdi. Mana shu davrda Said Ahmad kitobxonlar e‘tiboriga sazovor bo‘lgan o‘nlab mashhur hikoyalar yaratdi. Ustoz Abdulla Qahhor vafotidan keyin Said Ahmad o‘ttiz yetti yil umr kechirdi. Ko‘plab hikoyalar, qissalar, romanlar yozdi. Ulug‘ adibimizning yuqori darajadagi maqtovlariga sazovor bo‘lgan “Ufq” romanini davom ettirib, uni trilogiyaga aylantirdi. Keyingi qo‘shilgan “Qirq besh kun”, “Ufq bo‘sag‘asida” kabi kitoblarini yaratishda necha marotaba ustozini nigohini his qilib, o‘gitlarini qayta-qayta xayolidan o‘tkazib turgan bo‘lsa, ajab emas. Ehtimol, shu tufayli “Ufq” o‘zbek romanchiligi tarixida munosib o‘ringa ega bo‘lgan asar bo‘lib qoldi.

Atoqli yozuvchi Said Ahmadning badiiy jihatdan yetuk asarlar yaratishiga ana shunday ibratli ustoz-shogirdlik ham munosib hissa qo‘shgani, shubhasiz.

Muallif kechinmasi o‘z qahramonining hissiyotlari bilan hamohang bo‘la olishi lozim, yani muallif hayotida ko‘rgan shaxsining holatidan ta’sirlanib, o‘zi ham o‘sha holatga tushib qolishi va shu ruhiyat, taassurot zaminida voqeani asarga aylantira bilishi, o‘quvchi ongida ham aynan shu hissiyotni uyg‘ota olishi kerak. Muallif tasvirini berayotgan qahramonining quvonchida quvonish hissi, qayg‘usida qayg‘uga botishi, iztirobga tushib yig‘laganda qo‘shilib kitobxonning ham yig‘lashi, kulganda ovoz chiqarib kulib yuborishi kabi holatlarga asar mutolaasi jarayonida yuz berishida muallif mahorati bilan birga uning hissiyotining ta’siri sababdir. Bu hodisani Said Ahmad esse -xotiralarida ham ko‘ramiz.

Said Ahmad ustozlarini xotiralab o‘zining dil kechinmalarini “Yo‘qotganlarim va topganlarim” kitobida aks ettiradi. O‘zbek adabiyotini turli janrlarida ijod qilib boyitgan, serqirra iste’dod sohiblari adabiyot olamini tark etar ekan, ularning mangulikka qilgan safari butun adabiyot muxlislarini qayg‘uga soladi. Bu buyuk

² Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. – T.: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o‘ylar. – B. 153.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

insonlarning izidan borayotgan, ularning sabog'ini olib adabiyotga kirib kelgan, doimo ularga suyanib, ustozlarining yaxshi va yomon kunlarida yonida bo'lgan, ustozlari bilan ota-boladek bo'lib ketgan Said Ahmadni bu judolik og'ir qayg'uga soladi. Said Ahmad kitobda keltirilgan o'zining ichki kechinmalaridan shu ayon bo'ladiki, u xotirlab yozayotgan ustozlari unga faqatgina saboq berish bilan chegaralanmagan, balki Said Ahmadning katta ijod maydonida o'z yo'lini topish uchun unga to'g'ri yo'lni ko'rsatgan, bu yo'lda yurish uchun unga rahnomalik qilgan insonlardir.

Ustozlarining Said Ahmad hayotida tutgan o'rni haqida yana to'xtalib o'tadigan bo'lsak, bu insonlar Said Ahmadning qalb ko'zini ochgan, unga hayotning barcha voqea-hodisalarini teran o'ylashga, mushohada qilishga o'rgatgan murabbiylardir. Said Ahmad ustozlar xotirasini to'lib-toshib yozar ekan, kitobda u kechinmalarning badiiy ko'rinishini aks ettirgan. Adabiyotimizning buyuk namoyandalarining manguilikka bog'langan mo'tabar nomlarini Said Ahmad yod etib, ustozlari oldida, shu bilan birga butun o'zbek adabiyoti oldida o'zining burchini ado etganining guvohi bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1 Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. Toshkent: "Universitet". 1999.
- 2 Normatov U., Sayd Ahmad (Adabiy portret), Toshkent: 1971.
- 3 Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
- 4 Sanjar Sodiq. Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid. Toshkent: "Universitet", 1996.
- 5 Suvonova Rohila. "Yo'qotganlarim va topganlarim"dagi esse janri xususiyatlari. "Said Ahmad ijodining ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati va zamonaviy o'zbek adabiyoti" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari to'plami. 2020-yil 22-iyun.
- 6 Yoqubov H. Adibning mahorati. Toshkent: O'zadabiynashr, 1966.
- 7 Abdulla Qahhor. Asarlar (5 tomlik). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1987–1989.



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th February, 2025

-
- 8 Said Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim. –Toshkent: Sano-standart nashriyoti, 2014. Xotiralar. Adabiy o‘ylar. – 352 b.
 - 9 Ahmad S. Ufq. – Toshkent: “Sano-standart”, 2016. – 400 b.
 - 10 Ahmad S. Hikoyalar. www.ziyouz.com kutubxonasi.